

## **60730300 - Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) bakalavriat ta'lim yo'naliishi.**

60730300 - Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

60730300 - Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) bakalavriat ta'lim yo'naliishi - fan va texnika sohasidagi yo'naliish bo'lib, qurilish sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, uslublari hamda sanoat va fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo'llash, bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasi, turar-joy binolariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalash bilan bog'lik kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **Kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- turar-joy binolari, mehmonxona, yotoqxona, kam va ko'p qavatli turar-joy binolari, jamoat binolari, bog'chalar, maktablar, akademik-litseylar, professional ta'lim muassasalari, OTM o'quv binolari, hokimiyat, davlat boshqaruvi binolari, barcha turdag'i sanoat korxonalari binolari.

Yo'naliish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.